



MAQOL JANRIDA QOFIYANING VAZIFASI

Boyatov Oybek Maxmudjon o'g'li
University of Business and Science o'qituvchisi
Oybekboyatov151@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933397>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida keng qo'llangan maqol janrining qofiya tizimi haqida fikr yuritilgan. Qofiya unsurlari kichik lirik janrlarda ishlatilishi misollar orqali tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, she'r, qofiya, qo'shiq, doston, vazn, qofiyalanish.

Annotation: This article discusses the rhyme system in the genre of proverbs, which has been widely used in folk oral creativity. The use of rhyme elements in minor lyrical genres is explained through illustrative examples.

Keywords: proverb, poetry, rhyme, song, epic, meter, rhyming.

Аннотация: В данной статье рассматривается рифменная система жанра пословиц, широко распространённого в народном устном творчестве. Использование элементов рифмы в малых лирических жанрах поясняется на примерах.

Ключевые слова: пословица, стих, рифма, песня, дастан, размер, рифмовка.

Folklorshunos va she'rshunos olimlarning monografik yo'sindagi ishlarida, turli ilmiy maqolalarida xalq she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga, tarixiy-genetik asoslariga, obrazlar tizimiga, jahon xalqlari og'zaki ijodi namunalari bilan uzviy mushtarak va farqli jihatlariga nazar solingan. Shuningdek, o'zbek xalq qo'shiqlarining badiiyati, obrazlar dunyosi o'rganilganda bevosita ularning janri, shakli, vazni, band qurilishi, qofiyasi, urg'usi haqida ham ayrim qarashlar bayon qilingan, lekin monografik yo'sindagi ishlar yaratilgan emas. Jahon xalqlari she'rshunosligida esa xalq she'r tuzilishi bilan bog'liq masalalar allaqachon o'z yechimini topib ulgurgan. K. Risalievanning "Qirg'iz she'r tuzilishi", Z.Ahmetovanning "Qozoq she'r tuzilishi", I.V.Steblevaning "Turkiy xalqlar she'r tuzilishi" kabi ishlari ana shular jumlasidandir.

O'zbek xalq she'r tuzilishining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish doirasida bir qator ilmiy maqolalar yozilgan bo'lsa-da, nazariy asos to'la-to'kis yaratilib bo'lindi, deya olmaymiz. She'r tuzilishida yetakchi unsur sifatida taassurot uyg'otadigan birgina qofiyani olib ko'rish mumkin. Deylik, Sharq xalqlari she'riyatida qofiyaning tutgan o'rni xususida Shamsiddin Qays Roziy, Abu Nasr Farobiy, Vohid Tabriziy, Atoulloh Husayniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ilmiy qarashlari bayon etilgan.

1972-1975 yillarda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida katta bahs boshlandi. Bunda A.Rustamov, S.Mirzaeva, B.Sarimsoqov, H.Mirhaydarov, U.To'ychiev,



T. Boboev singari she'rshunos olimlar qofiya ilmi bilan bog'liq o'z qarashlarini ifodaladilar.

Ushbu bahslarda olimlar tomonidan ikkita katta ilmiy gipoteza asoslandi. Bir guruh olimlar mumtoz qofiya ilmini barmoqqa tatbiq qilib bo'lmaydi, degan xulosaga kelgan bo'lsalar, ikkinchi guruh she'r ilmi mutaxassislari, aksincha, arab-fors qofiya unsurlarini barmoqda ham qo'llayverish mumkin, degan xulosaga kelib, o'z qarashlarini yetarlicha ilmiy-faktik asosga ko'ra isbotladilar. She'riyatda "ritm o'qqa, qofiya banddan-bandga o'tayotgan o't" ga qiyos etiladi. Binobarin, ritm she'riy nutqdagi muayyan, bir-biriga monand bo'laklarning, so'z haqida tovushlarning ma'lum tartib va bir xilda takrorlanib kelishidir.

Bundan ko'rinib turibdiki, ritmsiz she'r bo'lmaydi. Xususan ritm she'rda misralardagi bo'g'inlarning tengligi, turoq tartibining bir xilda takrorlanishi bilan yaratiladi. Ritmning bunday o'ziga xos xususiyatlari klassik she'riyat bilan hozirgi zamon she'riyati, ya'ni aruz vazni bilan barmoq sistemasida ritm farqlanishiga olib keladi. Chunonchi, aruz vaznidagi she'rlarda ritm misralardagi cho'ziq /-/ hamda qisqa bo'g'inlarning bir maromda takrorlanishidan kelib chiqadi [Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. 1967. 181.]. Masalan, Alisher Navoiyning:

Oshiq o'ldim bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,

Oллоh-olлоh, ishq mundoq balolar bor emish, -

Bayti bilan boshlanuvchi g'azalini o'rganish asnosida ham yuqoridagi fikr tasdig'ini ko'rish mumkin. Bu yerda baytdagi har ikki misra so'zlari ham hijoning qisqa va cho'ziqligi hamda turoqlar sonining tengligi jihatidan bir-biriga mos tushgan. Ya'ni g'azalning har bir misrasi to'rt rukndan /oshiq o'ldim olloh-olloh; bilmadim – ishq aro; yor o'zgalar – mundoq balolar; yor emish – bor emish / iborat. Ruknlarning birinchisi to'rt, ikkinchisi va to'rtinchisi uch, uchinchi rukn esa besh hijoli. Uchinchi ruknning uchinchi, qolgan ruknlarda ikkinchi hijo qisqa bo'lib, qolgan hijolar to'liq. Shuningdek, g'azalning qolgan misralari ham rukn sonlari, hijolar tengligi va ularning qisqa hamda cho'ziqligi bilan yuqoridagi birinchi baytga birday hamohang bo'lib keladi. Bu g'azalda yagona ritmni, musiqiylikni yuzaga keltiradi. Misra oxirida tovushlarning takrorlanishi natijasida qofiyalangan so'zlar esa g'azal musiqiylikini ta'minlaydi.

Klassik she'riyatimizga ko'proq xos bo'lgan bunday xususiyat hozirgi zamon she'riyati, jumladan, xalq maqollarida unchalik bo'y ko'rsatmaydi. Barmoq vaznidagi she'rlarda va maqollarda ohangdoshlik, ya'ni ritm she'r misralaridagi hijolarning takrorlanishi, turoq qofiya hamda radiflardan hosil bo'ladi. Masalan:

Yaxshilikka yaxshilik –

Har kishining ishidir.



Yomonlikka yaxshilik-

Mard kishining ishidir. – [Ўзбек мақоллари. 2003. 154.]

maqolini olib ko'raylik. Maqol barmoq sistemasining yetti hijoli vaznida bitilgan. Misralar ikki turoqli. O'zaro qofiyalanib kelgan yaxshilik, ishidir ohangdosh so'zlari birday uch hijodan iboratdir. Bu yerda yaxshilik, ishidir, kishining so'zlari takrorlanib kelgan bo'lsa-da, maqolning ravonligiga halaqit bermaydi. Aksincha, hijolarning tengligi, tovushlarning bir xilda takrorlanib kelishi maqolda jozibali, o'ynoqi ritm yaratishda muhim rol' o'ynamoqda.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi uzoq qadim tarixga ega deymiz. Shu ma'noda maqol va qo'shiqlarning paydo bo'lishi mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Demak, ritmik nutqning yuzaga kelishi ham mehnat jarayoni, shuningdek, insonning ilk ijtimoiy rivojlanish davridagi ishi va kurashi bilan bog'langan. Masalan, ketmon chopayotgan dehqon ishiga monand bir xilda harakat qilsa, ishi yengillashadi. Yoki dastgoh ishchisi, sex tikuvchisining bir xildagi ritmik harakati ular mehnatini osonlashtiradi, bajarayotgan ishni ma'lum bir izga tushiradi. Qo'shiq yoki dostonlarda esa qo'llanadigan purma'no so'z, hijo, qofiya hamda rangin radiflarning qudrati evaziga ritm hosil bo'ladi. Misollarga murojaat qilaylik:

Erka tutsa onasi,

Taltayadi bolasi.

To'g'ri tutsa onasi,

Yurtga ega bolasi. [Ўзбек мақоллари. 2003. 158.]

Xalqimiz dilidan dur bo'lib quyilgan bu maqol tarbiya mavzuida. U bola tarbiyasi naqadar nozik ekanligi, bola tarbiyasida onaning tutgan o'rni, bolani haddan ziyod erkalatish yaxshilikka olib kelmasligi ta'kidlanadi. To'rtlikda bunday katta ma'noni hosil qilishda misralardagi qofiyalar asosiy rol o'ynaydi. Zero misralardagi onasi, bolasi so'zlari jozibali qofiyani yuzaga keltirmagan bo'lardi. Chunki bunday holda ma'no buzilmasa-da, qofiyadosh so'zlarda hijolar uyg'unligi unli va undosh tovushlarning takror sistemasi meyoridan chetga chiqadi.

Maqollarda o'zbek she'riyatidagi band ko'rinishlarining bir nechta an'anaviy turlari uchraydi. Maqollarda asosan, sodda band / ikkilikdan oltilikka/ ko'rinishlardagi bandlar uchraydi. Jumladan, ikkiliklar,

Qiz saqlay bilmagan go'ng etar,

Iprak saqlay bilmagan yung etar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 159.]

Yoki:

Yaxshi bola nom keltirar,

Yomon bola g'am keltirar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 163.]

Maqollarda uchliklar ham uchraydi:



Bir ko'rgan tanish,

Ikki qo'rgan-oshna,

Uch ko'rgan-qarindosh. [Ўзбек мақоллари. 2003. 263.]

Maqollar orasidagi uchliklarni tahlil qilganimizda ko'rishimiz mumkinki, qofiyalanishda ham, bandlardagi misralar sonida ham izchillikka qat'iy rioya qilinmagan. Umuman, maqoldagi oxirgi xulosa banddan kelib chiqadigan mantiqqa ko'ra, uning shakli, tuzilishi boshqalardan farq qiladi va bu uchlikdan tuzilgan maqollarga xos xususiyat ekanligini aytish mumkin. Uchliklar odatda yuqoridagi kabi a-b-a tarzida qofiyalanishi mumkin.

To'rtlikdan iborat bo'lgan maqollarda to'rtlikning besh-olti xil qofiyalanuvchi har xil turoqli ko'rinishlarini uchramiz. Masalan, quyidagi maqol 7 hijoli barmoq vaznida yozilgan:

Go'ja tuysang, mayda tuy,

Qaynotangning tishi yo'q.

Qayga borsang, shunda bor,

Qaynotangning ishi yo'q. [Ўзбек мақоллари. 2003. 263.]

Maqol b-a-b-a tarzida qofiyalangan.

Quyidagi maqol juda kam uchraydigan ikki xil vaznda yozilgan:

Qor yog'di deb sevinma,

Ayozlari bor.

Xo'ja keldi deb sevinma,

Niyozlari bor. [Ўзбек мақоллари. 2003. 494.]

Ushbu maqolning birinchi bandi 7 bo'g'inli, uchunchisi 8 va to'rtinchi bandlari 5 bo'g'inli bo'lib, b-a, ba tarzida qofiyalangan.

Quyidagi maqol ham xuddi ana shunday shakldagi maqollar sirasiga kiradi:

Qor yog'di deb sevinma,

Qirovlari bor.

So'fi keldi deb suyunma,

So'rovlari bor. [Ўзбек мақоллари. 2003. 494.]

Uchlik maqollarda esa gohida a-a-a tarzida qofiyalangan maqollar ham uchraydi. Masalan,

So'z ko'rki –maqol,

Guzar ko'rki- baqqol

Yigit ko'rki-soqol. [Ўзбек мақоллари. 2003. 154.]

Ushbu maqolda maqol, baqqol, soqol so'zlari o'zaro qofiya qilingan. Qolaversa, so'zlar faqat birgina harfini almashtirish orqali yangi ma'no anglatishga xizmat qilgan.



Bog'ni boqsang – bog' bo'lur,

Botmon dehsar yog' bo'lur.

Boqimsiz bog' tog' bo'lur,

Yurak-bag'ring dog' bo'lur. [Ўзбек мақоллари. 2003. 25.]

Maqol barmoq sistemasining yetti bo'g'inli vaznda yozilgan. a-a-a-a shaklida qofiyalangan. Yetti hijoli misralar bog', yog', tog', dog' so'zlari orqali ohangdoshlik kasb etgan. Qofiyadosh so'zlarning o'zagi uyg'un, faqat bitta harfni o'zgartirish orqali boshqa ma'no hosil qilingan. Bu yerda takrorlanib kelgan bo'lur so'zi radif bo'lib, maqol ritmiga putur yetkazmaydi, aksincha musiqiylikni ta'minlagan.

Quyidagi maqol ham ana shunday barmoq vaznining yetti bo'g'inida yozilgan:

Charx yigirsam pul bo'lar,

Boshim dasta gul bo'lar.

Yaxshi-yaxshi yigitlar,

Eshigimga qul bo'lar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 37.]

Maqolda birinchi, ikkinchi va to'rtinchi satrlar pul, gul, qul so'zlari yordamida o'aro qofiyalangan. Ular so'zi radifdir. Bu yerda uchinchi qatordagi yaxshi-yaxshi yigitlar so'zining takrorlanib kelishi maqolning ohangdorligini ta'minlagan. Bu yerda qofiyaning yo'qligi bilinmaydi.

Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang,

Yomondan burun o'lasan.

Yaxshi bilan sirdosh bo'lsang,

Yaxshilik bilan unasan. [Ўзбек мақоллари. 2003. 55.]

Sakkiz bo'g'indan iborat bo'lgan ushbu maqolning qofiyalanishi butunlay o'zgacha. Masalan, birinchi satr bilan uchinchi satrdagi yo'ldosh-sirdosh so'zlari qofiyalangan bo'lsa, bo'lsang so'zi radif vazifasida kelgan. O'lasan-o'lasan so'zlari ikkinchi va uchinchi satrlarni qofiyadosh qilishga xizmat qilgan.

Oriq degan yomon toy,

Yozga chiqib ot bo'lar.

Yomonlikni ko'p qilsa,

Yaxshi kishi yot bo'lar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 67.]

Ushbu maqolda ikkinchi va to'rtinchi qatordagi ot, yot so'zlari qofiya qilingan. Birinchi va uchinchi qatordagi so'zlar qofiya xatolariga kiradi.

Maqollar beshlik shaklida kelganda ulardagi qofiyalanish quyidagicha bo'ladi:

Yomon otga yol bitsa,

Yoniga tursuk boylatmas,

Yomon erga mol bitsa,

Yoniga qo'shni yo'latmas,



Yo'latsa ham tindirmas. [Ўзбек мақоллари. 2003. 57.]

Maqolda birinchi satr bilan uchinchi satrdagi yol-mol so'zlari satrdagi boylatmas, to'rtinchi satrdagi yo'latmas va beshinchi satrdagi tindirmas so'zlari qofiya qilingan. Maqol a-b-a-b-b tarzida qofiyalangan.

Ko'pincha maqollarda ichki va tashqi qofiyalar ham qo'llaniladiki, ular quyidagi tarzda qofiyalanadi:

Shirin-shirin so'zlasang,

Ilon inidan chiqar.

Achchiq-achchiq so'zlasang,

Musulmon dinidan chiqar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 86.]

Bu yerda ikkinchi va to'rtinchi qatordagi inidan-dinidan so'zlari qofiya qilingan. Shirin-shirin so'zlari esa uningn antonimi bo'lgan achchiq-achchiq so'zlariga qofiya qilingan. Garchi bu so'zlar och qofiya bo'lsa-da, maqolning ohangdorligini ta'minlab, unga alohida joziba baxsh etgan.

Er yigit deb kim aytar,

Yovda yalov yiqmasa.

Chechanligin kim maqtar,

Dovda uni chiqmasa. [Ўзбек мақоллари. 2003. 143.]

Bu maqolni to'liq qofiyaga misol qilish mumkin. Chunki maqoldagi aytar-maqtar, yiqmasa-chiqmasa so'zlari bir-biriga tovush jihatidan ham mos kelgan.

Beraman degan quliga,

Chiqarib qo'yadi yo'liga.

Olamani degan qulidan,

Tortib oladi qo'lidan. [Ўзбек мақоллари. 2003. 194.]

Ushbu maqoldagi qofiya qilingan so'zlarning o'zagi, ya'ni qul-yo'l-qo'l so'zlaridir. E'tibor qilgan bo'lsangiz, birinchi a ikkinchi qatorda -ga qo'shimchasi, uchinchi va to'rtinchi qatorda -dan qo'shimchasi maqolning ohangdorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xalq maqollariga bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin:

Arg'umoqda yol yo'q deb,

Yo'lga tashlab ketmanglar.

Er yigitda mol yo'q deb,

Yovga tashlab ketmanglar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 215.]

Maqoldagi yol-mol so'zlari ichki qofiya bo'lsa, yolga-yovga so'zlari tashqi qofiyadir. Bu yerda ikkita radif ishlatilgan: yo'q deb va tashlab ketmanglar so'zlari.

Ayrim hollarda esa sanoq sonlar qofiya qilingan maqollar ham uchraydi:

Bir bo'lgan ikki bo'lmay qolmas,



Ikki bo'lgan uch bo'lmay qolmas.

Uch bo'lgan doim bo'lmay qolmas. [Ўзбек мақоллари. 2003. 215.]

Maqolda ikki-uch doim so'zlari qilib ishlatilgan. Qolmas so'zi esa radifdir.

Demak, maqollardagi qofiyalarda qofiyadosh so'zlarning o'zagi uyg'unlashmasligi ham mumkin. Qofiya faqat qo'shimchalarning takrorlanishi yoki aynan qo'llanilgan so'zlarning takrorlanishi natijasida yuzaga keltiriladi. Lekin bu hol maqol ritmiga putur yetkazmaydi, aksincha, musiqiylini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan,

Yaxshiga bersang oshingni,

Yaxshilar silar boshingni.

Yomonga bersang oshingni,

Itga tashlar boshingni. [Ўзбек мақоллари. 2003. 227.]

Maqoldagi osh-bosh so'zlarida –ni qo'shimchasi ana shu vazifani ado etgan.

Shavla ketsa qo'lingdan,

Ketganiga rozi bo'l.

Obro' qolsa o'zingda,

Xursand bo'lib to'ylar qil. [Ўзбек мақоллари. 2003. 323.]

Maqolda -dan va -da qo'shimchalari holda 1 undoshi orqali qofiyalanish qo'llanilgan. Boisi qo'l va o'z so'zlari butunlay boshqa-boshqa o'zak so'zlardir.

Maqollarda a-a-a-a tarzidagi:

Ber, dedi subhon,

Berib soldi sulton.

Berma dedi subhon,

Nimani bersin sulton. [Ўзбек мақоллари. 2003. 355.]

Yuqoridagi kabi qofiyalangan maqollardan tashqari a-a tarzidagi qofiyalangan ikkiliklar ko'p uchraydi. Masalan,

Ayrimagin elingdan,

Quvvat ketar belingdan. [Ўзбек мақоллари. 2003. 9.]

Maqol yetti bo'g'inli bo'lib barmoq vanida yozilgan.

Elingdan-belingdan so'zlari to'liq qofiyadir. Chunki el-bel so'zlari qofiyadosh o'zaklardan, -i egalik qo'shimchasi va -dan qo'shimchasi maqolning ohangdorligini ta'minlagan. Yoki:

Vatani borning baxti bor,

Mehnati borning taxti bor. [Ўзбек мақоллари. 2003. 9.]

Maqolini olib ko'raylik. Bu yerda baxti-taxti so'zlari qofiya qilingan.

Yaxshi yigit yurt tuzar,

Yomon yigit yurt buzar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 27.]



Ushbu maqoldagi tuzar-buzar soʻzlari maqolda toʻliq qofiya vazifasini bajargan.

Yotgan yotogʻon boʻlar,

Sovuqqa qatogʻon boʻlar. [Ўзбек мақоллари. 2003. 14.]

Maqolida yotogʻon-qatogʻon soʻzlari qofiya, boʻlar soʻzlari radif vazifasida kelgan. Xuddi shunday holatni quyidagi maqolda ham kuzatish mumkin.

Jon kuydirmasang janona qayda,

Toqqa chiqmasang doʻlana qayda. [Ўзбек мақоллари. 2003. 154.]

maqolida ham a-a tarzida qofiyalanishi mumkin.

Xalq maqollari shunday qofiyalanganki, ular xuddi qoʻshiqqa oʻxshaydi.

Masalan:

Qarasang-bogʻman,

Qaramasang-dogʻman. [Ўзбек мақоллари. 2003. 39.]

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, xalqimiz yaratgan maqollar mazmuni jihatidan chuqur boʻlishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Ularda goʻzal oʻxshatishlar, tovushdoshlik, mubolagʻalar, majoziy obrazlar yetakchi oʻrinni egallaydi. “Ona bilan bola, gul bilan lola” degan maqolda istiora badiiy sanʼati qoʻllanilgan. Maqolning mazmunida ona bilan bolaning gul bilan lolaga oʻxshatilishi nazarda tutiladi. “Olim boʻlsang, olam seniki” maqolida “o”, “a”, “s” tovushlari alliteratsiya-tovushdoshlik holatini vujudga keltirgan.

Endi “Boy boyga boqar, suv soyga oqar” maqoliga diqqat qilaylik. Bu maqolda “boyga” va “soyga” soʻzlari ichki qofiyani, “boqar” va “oqar” soʻzlari tashqi qofiyani tashkil qiladi. Qizigʻi shundaki, har ikkala qofiyadosh soʻzlarda ham faqat bitta tovushda farq seziladi. Bu esa maqolning badiiy jihatdan mukammalligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chogʻda “b”, “o”, “e”, “r”, “s” kabi tovushlar vositasida tovushdoshlik holati vujudga keltirilgan. Bunday qofiyalanish xalq maqollarida koʻplab uchraydi. “Beli bogʻliqning dili bogʻliq”, “Koʻklam-mehnat bilan koʻrkam”, “Kim ishlaydi, kim tishlaydi”, “Ochkoʻz boyimas, oʻgʻri toʻymas”, “Savdogar, ishi doim hiylagar”, “Qora koʻngil – yara koʻngil”, “Koʻngilning olasi-xudoning balosi”, “Eldagi gap- dildagi gap”, “Yot yeb toʻyguncha, doʻst oʻla oʻlguncha”, “Ihlos-xalos”, “Maslahatsiz ish- oʻrinsiz tashvish” kabi faqat bir qatordan iborat boʻlgan yuzlab maqollarda ham oʻziga xos qofiyalanishni kuzatamiz.

Xalq ogʻzaki badiiy ijodi namunalaridan bunday misollarni koʻplab keltirish mumkin. Zotan, xalqning oʻzi ehtiros bilan kuylagan har bir poetik asar uchun bunday holat asosiy xususiyat sanaladi. “Sanʼatning jon tomiri, - degan edi L.N.Tolstoy – sanʼatkorning oʻz predmetiga boʻlgan ehtirosli muhabbatidir. Mabodo shunday muhabbat mavjud boʻlsa, asar boshqa talablarga: mazmunga va goʻzalikka ham javob beradi. Mazmunga shuning uchun javob beradiki, arzimasi



narsani ehtiros bilan sevib bo'lmaydi; go'zallikka esa shuning uchun monandki, san'atkor biror predmetni sevar ekan, sevimli mundarijani eng yaxshi shaklda ifodalash uchun hech qanday mehnatni ayamaydi" [Бобоев Т. 2002. 108.]

Har bir xalq ijodkori o'zi qulamoqchi, doston yoki ertak qilib aytmoqchi bo'lgan hayot hodisalarini, tanlangan qahramonlarni ehtiros bilan sevadi. Shuning uchun ham asrlar osha saqlanib, ardoqlanib kelinayotgan xalq ijodi namunlarida obraz va tasvirlar g'oyat quyuq poetik bo'yoqlarda berilgan, unda ilgari surilgan g'oya mantiqiy barkamol. Bu poetik bo'yoq va mantiqiy barkamollik esa har bir asarda badiiy detallarning o'z o'rnida qo'llanilishi, she'riy asarda o'ynoqi, jozibali ritmning yuzaga keltirilishi orqali, ya'ni qofiya orqali amalga oshiriladi.

Xullas, badiiy jihatdan mukammallik maqollarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. O'xshatish, tovushdoshlik, sifatlash, istiora, majoz, qofiya tasvir san'atlari keng qo'llanilganligi bilan ular o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Unga yod bo'lib ketadi. Axir "Bulbul chamanni sevar, Odam-Vatanni", "Vatan gadosi-kafan gadosi", "Vatan uchun o'lmoq sharaf", "Vatan qadrini bilmagan, o'z qadrini bilmas", "Dindan chiqsang ham, eldan chiqma", "Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar", "Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l", "Ona yerning tuprog'i, ona sutiday aziz", "Ona yurtining-oltin beshiging" kabi maqollar qon-qonimizga singib, og'zaki nutqimizdan joy olgan. Biz ularga har kun, har soatda murojaat qilamiz.

Maqollar uzoq o'tmishda bo'lgani kabi bugungi kunda ham mustaqillikka erishgan o'zbek xalqining avlodini ajdodlar havas qilgan barkamol inson darajasiga yetaklovchi asosiy tarbiya vositalaridan bo'lgan bebaho so'z durdonalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хомидий.Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С.Адабиётшунослик терминлари луғати, Т.,1967.
2. Ўзбек мақоллари. Т., Шарқ, 2003.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., "Ўқитувчи" 2002.